

Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I.* Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II.* Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari
- III.* Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo‘yicha taqsimoti
- IV.* Qurilish ishlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 3 313,4 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 176,0% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi





Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 313,4	176,0
Nukus shahri	400,9	101,4
<i>tumanlar</i>		
Amudaryo	80,7	101,5
Beruniy	87,1	101,3
Bo'zotov	22,6	101,9
Qorao'zak	24,0	101,2
Kegeyli	26,3	102,1
Qo'ng'iro't	257,1	3,9 m.
Qonliko'l	28,5	100,6
Mo'ynoq	1 240,6	13,9 m.
Nukus	74,0	101,7
Taxiatosh	75,9	101,9
Taxtako'pir	30,7	103,2
To'rtko'l	149,9	105,5
Xo'jayli	60,6	105,7
Chimboy	55,0	108,5
Shumanay	20,0	101,4
Ellikqal'a	91,5	101,2

2026-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Mo'ynoq tumani (1 240,6 mlrd so'm), Nukus shahri (400,9 mlrd so'm) va Qo'ng'iro't tumanida (257,1 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 85,4% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,1 marta ni tashkil etdi;


- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,7% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 98,5% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,9% ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 86,8% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 695,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 11,3 marta ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 43,2 % ga ko'payib, 51,2 % ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 29,0 % i to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 30,0 % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 86,6 % ni tashkil etgan holda 961,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Re sp.	1 695,5	961,5	656,4	1 134,6	86,6	105,5
Nukus shahri	79,7	299,2	22,0	22,2 m.	79,5	140,7
<i>tumanlar</i>						
Amudaryo	2,8	43,9	34,0	226,0	100,3	98,4
Beruniy	8,7	61,9	16,5	382,7	89,5	114,1
Bo'zotov	1,0	16,5	5,1	187,3	90,8	147,3
Qorao'zak	3,3	15,6	5,1	108,3	98,9	104,4
Kegeyli	2,6	18,1	5,6	235,2	93,7	104,6
Qo'ng'iro't	233,1	19,7	4,3	807,0	63,1	68,9
Qonliko'l	1,4	9,8	17,3	156,1	101,5	97,3
Mo'ynoq	1 216,7	18,0	5,9	9,0 m.	26,0	90,3
Nukus	1,0	50,5	22,5	112,5	103,5	97,0
Taxiatosh	8,6	57,4	9,9	43,3	128,9	99,1
Taxtakopir	1,6	24,2	4,9	25,6	134,2	90,1
To'rtko'l	32,8	82,2	34,9	349,7	84,5	98,5
Xo'jayli	6,1	38,5	16,0	18,1 m.	95,4	96,2
Chimboy	11,0	9,0	35,0	10,3 m.	70,3	95,3
Shumanay	2,0	8,5	9,5	143,0	97,4	98,8
Ellikqal'a	21,9	55,2	14,4	153,9	89,8	97,7

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 19,8% ni yoki 656,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 105,2% ni tashkil etdi. Shundan 624,2 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 132,5% ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1,9 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 30,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

D. Abdullaeva

Manzil:

230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy

Pochta: info@qrstat.uz

Tel.: +998 (61) 222-75-91
